

“Qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish” yo‘nalishidagi ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida dolzarb muammolarni hal etish va aniq mahsulotga qaratilgan

MAQSADLI DASTURI

T/r	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
1.	Qashqadaryo hududidagi mavjud marmar konlari sanoat chiqindilaridan qurilish materiallarini olish texnologiyasini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: qashqadaryoning tog‘ va tog‘ oldi hududlarida mavjud marmar konlarida, marmar olish jarayonida qazib olingan jinsning 25-40% i qattiq va kukunsimon ko‘rinishdagi sanoat chiqindilari bo‘lib, ularning atrof–muhitga zararli ta’siri yil sayin ortib bormoqda. Bu chiqindilar asosan marmar konidan bloklarni ajratib olish, bloklarni turli o‘lchamda kesish, marmar plitalarga ishlov berish, silliqlash va sayqallash hamda tayyor mahsulotlarni kerakli o‘lchamga keltirish amalga oshiriladi; chiqindilardan yangi issiqlik-izolyatsion kompozitsion materiallarini olish orqali sohani yashil texnologiyaga aylantirish, mahsulot sifati va tannarxining arzonlashuvi evaziga ichki bozordagi raqobatbardoshligi va eksport imkoniyati yaratiladi; marmar chiqindilarini qayta ishlash orqali quruq kukunsimon aralashmalar olish, ularni qulilish binolarining tashqi va ichki fasad qismlari uchun mo‘ljallangan issiqlik-izolyatsion kompozitsion materiallar olish texnologiyasi ishlab chiqish; shuningdek, ishlab chiqilgan texnologiyani qo‘llash orqali tog‘ va tog‘ oldi hududlardagi marmar koni chiqindilaridan samarali foydalanish 90-100% gacha oshiriladi. Iqtisodiy samaradorlik esa 25-30% ga erishiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida tegishli xulosalar olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.